



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
IV-QISM**

Google Scholar



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
IV-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

YASHIL ENERGIYA SEKTORIDA VENCHUR INVESTITSIYALARINING RIVOJLANISHI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON IMKONIYATLARI	12
Qarajanova Gulnoza Tolliyevna	
MILLIY KOMPANIYALARNI BAYNALMILALLASHUV BOSQICHLARI VA XALQARO KORPORATIV BIRLASHUVLAR (M&A) STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	19
Shokirov Shoxruxmirzo Baxtiyorjon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGINI IQLIM VA EKOLOGIK O'ZGARISHLARGA MOSLASHTIRISHDA SMART TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH METODOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	23
Mirzataev Salamat Muratbaevich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA MEVACHILIK KLASTERLARINI TASHKIL ETISHNING ISHLAB CHIQRISH VA RENTABELLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	28
Tureev Azizbek Abatovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH XIZMATLARINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK MODELII.....	32
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	37
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich	
THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL INSURANCE MARKET AND THE LEVEL OF INCLUSIVENESS.....	43
Ravshanova Mohinur O'rolovna	
O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI AJ KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	51
Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI.....	55
Qaraev Anvar Botirovich	
THE IMPACT OF LOYALTY PROGRAMS ON CUSTOMER RETENTION IN ONLINE COSMETICS: A MIXED-METHODS STUDY	61
Toirova Mubina	
IQLIM O'ZGARISHI VA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING JAHON MOLIYA BOZORLARIGA TA'SIRI.....	66
Qo'chqorova Muxlisaxon Ulug'bek qizi	
KICHIK BIZNES RIVOJLANISHIDA RAQAMLI PLATFORMALAR - ELEKTRON TIJORAT SAYTLARI, MARKETPLEYSLAR VA MOBIL ILOVALARNING O'RNI.....	73
Rizayeva Nilufar Oblakulovna	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BIZNES JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDAGI IQTISODIY SAMARADORLIGI	79
Abdulla Mavlonov	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARI LOGISTIKASINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI BOZOR INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	82
Komekova Gulzira Sharbaevna	



МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К АГРЕГИРОВАНИЮ РАЗРОЗНЕННЫХ ДАННЫХ В ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ	87
Бекматов Акмал Курбонмахматович	
SUG'URTA TASHKIOTLARIDA MHXSGA O'TISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI	93
Azamatova G. I.	
O'ZBEKISTON SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHGA YO'NALTIRILGAN INVESTITSİYALARNING XARAJAT-FOYDA TAHLILI	98
Omonov Olim Murodullayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	104
Isxakova Sarvar Ayubovna	
Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna	
ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В КРЕДИТНОМ СКОРИНГЕ РОЗНИЧНЫХ ЗАЁМЩИКОВ: ОПЫТ АКБ «КАПИТАЛБАНК» (РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН)	109
Жанайдарова Камола Абаевна	
INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHDA IPO VA KORPORATIV OBLIGATSIYALAR SAMARADORLIGI	115
G'afurov Sherzod Abdvaxob o'g'li	
O'ZBEKISTON TURIZM BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING TADQIQOTLARNING AHAMIYATI	120
Usmanova Zumrad Islamovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL VODOROD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING BIZNES VA INVESTITSION MEKANIZMLARI	123
Nuraliyeva Komila Sanaqulovna	
XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA XALQARO TAJRIBALAR TAHLILI: SOLIQ ISLOHOTLARI VA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	130
Utkirova Jasmina Jasur qizi	
XORIJIY DAVLATLAR AMALIYOTIDA XUSUSIY INVESTITSİYALAR VA AHOLI DAROMADLARI O'RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TARTIBGA SOLISH YO'NALISHLARI	135
Salimova Zaxro Sobirjon qizi	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI VA BASHORATI	141
Xakimov D.R.	
ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОГРЕССА НА ЗАНЯТОСТЬ: ОПТИМИЗАЦИЯ И ТРАНСФОРМАЦИЯ РАБОЧИХ МЕСТ	151
Эркинбаева Камила Жавлонбековна	
TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY RESURSLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	156
Tangirkulov Bekzod Boxadirovich	
HUDUDLARDA TURISTLARGA UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINI KO'RSATISHNING SAMARALI RIVOJLANISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH: RFEI INDEKSI, KLASSTER MODELİ VA "TASTE UZBEKISTAN" RAQAMLI EKOTIZIMI	162
Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna	
SAVDODA MARKETING TADQIQOTLARINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	171
Jalalova Dildora Jamolovna	
КЛИМАТИЧЕСКОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В КОНТЕКСТЕ ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	174
Лана Цхай	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNI MOLIYAVIY HISOBOTDA AKS ETTIRISHNI MASALALARI	181
G'oziyeva Moxira Rustam qizi	



TA'LIM MUASSASALARIDA LIDERLIK SAMARADORLIGINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	189
Yuldashova Yoqutoy	
KICHIK VA O'RTA BIZNESNI RAQAMLI KREDITLASHNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI	193
Karimova Aziza Maxomadrizoyevna Abduraxmonov Faridun Firo'z o'g'li	
SANOAT TARMOQLARIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA KONSEPSIYASINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL MAZMUNI	199
Mamarasulova Iroda Zafarjon qizi	
ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ: ТЕОРИЯ, ОТРАСЛЕВАЯ СПЕЦИФИКА И МИРОВЫЕ ПРАКТИКИ.....	204
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
ENHANCING GREEN ACCOUNTING IN UZBEKISTAN: COMPARATIVE LESSONS FROM DEVELOPED ECONOMIES FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT	210
Xolmurodova Durdona Otamurod qizi	
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ, СОЦИАЛЬНЫЕ И ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	218
Саттарова Зухра Илхомовна	
KICHIK BIZNES RIVOJLANISHINING HUDUDIY INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIRI	224
Toirjonov Sardorbek Dilshodjon o'g'li	
HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA KICHIK BIZNESNING BANDLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	229
Mamadaliyev Doniyorbek Shuhratbek o'g'li	
TOSHKENTDA KICHIK BIZNES KORXONALARIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI: LOGIT VA PROBIT MODELLARI ASOSIDA EMPIRIK TAHLIL	235
Hasan Ibragimov Mannonov Shahzod Toshmurod Qulmanov	
MOSLASHUVCHAN MENEJMENT VA UNING SIFAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI	242
Ibroximova Zuhra Baxtiyor qizi	
IJTIMOIIY SOHANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI.....	247
Ro'zmetov Kamol Ibodullayevich Ibragimov Qayumbek Ikromovich	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI.....	254
Muminov Bekzod Polvonovich	
KORPORATIV AXBOROT TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH KONSEPSIYASINING NAZARIY EVOLYUTSIYASI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR TASNIFI.....	263
Kuchkarov Ulug'bek Tahirovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MINTAQALARIDA EKSPORT FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	268
Abdulatifova Moxinur Alisher qizi	
FIZIKA FANINI SUN'IY INTELLEKT INTEGRATSIYASI ASOSIDA SAMARALI O'QITISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	275
Razzoqov I.D.	
RAQAMLI MEHNAT BOZORLARI VA IQTISODIY BARQARORLIK: O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTON MISOLIDA QIYOSIY TAHLIL	281
Safarova Gulruh Akmal qizi	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ КАТЕГОРИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ И НАУЧНЫЙ	



ПОДХОД К ЕЁ ОПРЕДЕЛЕНИЮ.....	287
Зайналов Ж. Р.	
O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDAGI O‘RNI.....	293
Xolmatova Mumtozbeqim Alisherxon qizi	
TURISTIK BOZOR KONYUNKTURASINI O‘RGANISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI.....	298
Usmanova Zumrad Islamovna	
PREPARATION OF NUT JAM USING MULBERRY SYRUP BASED ON ITS CONSUMER PROPERTIES.....	302
Pardaev Gayrat Yakhshibaevich	
BUXORO TARIXIY MARKAZIDAGI MEROS OBYEKTLARINING TURISTIK SIG‘IM IMKONIYATLARI.....	306
Tolibova Shaxrizoda	
КОМПЛЕКСНЫЙ НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ОТЧЕТ: ТРАНСФОРМАЦИЯ, ФИНАНСОВАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ И ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ СТРАХОВОГО РЫНКА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	314
Махмудов Комолиддин Розметович	
SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT IN DEVELOPING COUNTRIES: THE SYNERGY OF INVESTMENT, AGRICULTURAL TRANSFORMATION, AND ENVIRONMENTAL POLICY.....	319
Kholmukhamedova Feruza	
IQTISODIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA EKSPORT OPERATSIYALARINI MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	324
Mir Axmadova Mariyam Nosir Axmadovna	
ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЛИКВИДНОСТИ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ В РУСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	330
Бауетдинов Мажит Жанызакович	
Жанызакова Шахноза Мажит кызы	
FEATURES AND WAYS OF FURTHER DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY.....	338
Kobilov Alisher	
Majidova Irodahon	
RAQAMLI UNIVERSITET MODELI — BARQAROR OLIY TA‘LIMNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	346
Nazirova Komola Raximjon qizi	
HUDUD EKSPORTINING XOM ASHYOGA BOG‘LIQLIGI: MOLIYAVIY OQIBATLAR VA BARTARAF ETISH YO‘LLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA).....	352
Norturayev Mansurbek Obid o‘g‘li	
MOLIYA BOZORINING IQTISODIY O‘SISHDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	359
Maxkamova Dilafuz Aliyevna	
Miryunusov Avaz Iqboljon o‘g‘li	
ECONOMIC FOUNDATIONS FOR ENHANCING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE SERVICES IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM.....	363
Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna	
KORXONA BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	368
Shodmanov Toshtemir Ro‘ziyevich	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BOZOR MEKANIZMLARINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI VA ULARNING MILLIY IQTISODIYOTDAGI O‘RNI.....	372
Amonova Nazokat O‘tkurovna	



ЭКОНОМИКА АВТОМАТИЗАЦИИ КАК ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ МЕНЯЮТ СТРУКТУРУ ЗАТРАТ И БИЗНЕС-МОДЕЛИ	378
Ли Д.Э.	
KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNI TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIGA TATBIQ ETISH YO'NALISHLARI.....	382
Bozorov Jasurbek Panji o'g'li	
KICHIK BIZNES KORXONALARIDA AYLANMA MABLAG'LARNI SAMARALI BOSHQARISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	387
Tashxodjayev Abdurasul Abdulmansurovich	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INVESTITSIYA SAMARADORLIGIGA TA'SIRI: NAZARIY ASOSLAR VA EMPIRIK TAHLIL.....	395
Abdig'aniyeva S.M.	
ДАВЛАТ ХАРИДЛАРИДА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТГА АСОСЛАНГАН НАРХЛАР МОДУЛИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ: КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КОМПЛАЕНС, ҲИСОБДОРЛИК ВА РАҚОБАТНИ КУЧАЙТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ	401
Рахманов Фурқат Темирович	
BANKLARDA SUG'URTA FAOLIYATINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	407
Isayeva Xolbibi Boboqulovna	
Ziyatova Sitora Baxtiyor qizi	
BANKLARDA KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASH VA AXBOROT RISKLARINI BOSHQARISH	413
Eshqobilov Ahmad Javliyevich	



BANKLARDA KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASH VA AXBOROT RISKLARINI BOSHQARISH



Eshqobilov Ahmad Javliyevich
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
"Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrası o'qituvchisi
E-mail: eshkobilovaxmad@gmail.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-4956-251X>

Annotatsiya. Mazkur maqolada bank tizimida kiberxavfsizlikni ta'minlash va axborot risklarini boshqarishning nazariy hamda amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Bank faoliyatining raqamlashtirilishi sharoitida kiberxavflarning ortib borishi, axborot tizimlariga noqonuniy kirish, ma'lumotlarning o'g'irlanishi va moliyaviy fribgarlik holatlarining banklar faoliyatiga salbiy ta'siri yoritilgan. Shuningdek, axborot risklarini aniqlash, baholash va boshqarish usullari, zamonaviy kiberhimoya vositalari hamda xalqaro tajribalar o'rganilgan. Tadqiqot natijasida banklarda axborot xavfsizligini kuchaytirish, kiberxavflarni kamaytirish va risklarni samarali boshqarish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: bank tizimi, kiberxavfsizlik, axborot xavfsizligi, axborot risklari, risklarni boshqarish, raqamli bank xizmatlari, kiberhujumlar, moliyaviy xavfsizlik.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of ensuring cybersecurity and managing information risks in the banking sector. In the context of the rapid digitalization of banking activities, increasing cyber threats, unauthorized access to information systems, data breaches, and financial fraud are analyzed as major challenges affecting banking operations. The study explores methods for identifying, assessing, and managing information risks, as well as modern cybersecurity tools and international best practices. Based on the findings, practical recommendations are proposed to strengthen information security, reduce cyber risks, and improve the effectiveness of risk management systems in commercial banks.

Keywords: banking sector, cybersecurity, information security, information risks, risk management, digital banking services, cyberattacks, financial security.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты обеспечения кибербезопасности и управления информационными рисками в банковской сфере. В условиях цифровизации банковской деятельности особое внимание уделяется росту киберугроз, несанкционированному доступу к информационным системам, утечке данных и финансовому мошенничеству, оказывающим негативное влияние на деятельность банков. Исследованы методы выявления, оценки и управления информационными рисками, а также современные средства киберзащиты и международный опыт в данной области. По результатам исследования разработаны практические рекомендации по укреплению информационной безопасности, снижению киберрисков и повышению эффективности системы управления рисками в коммерческих банках.

Ключевые слова: банковская система, кибербезопасность, информационная безопасность, информационные риски, управление рисками, цифровые банковские услуги, кибератаки, финансовая безопасность.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi bank sektorida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishni taqozo etmoqda. So'nggi yillarda bank xizmatlarining raqamlashtirilishi, mobil ilovalar, internet-banking, masofaviy to'lov tizimlari va elektron tijoratning rivojlanishi moliyaviy xizmatlar



sifatini oshirish bilan bir qatorda, yangi turdagi xavf-xatarlarning yuzaga kelishiga ham sabab bo'lmoqda. Xususan, kiberhujumlar, ma'lumotlarning noqonuniy o'zlashtirilishi, moliyaviy firibgarlik va axborot tizimlariga ruxsatsiz kirish holatlari banklar faoliyati barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bank tizimi mamlakat moliyaviy tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanib, unda axborot xavfsizligini ta'minlash iqtisodiy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Banklarda saqlanayotgan mijozlar ma'lumotlari, moliyaviy operatsiyalar va elektron to'lov tizimlarining himoyalanganligi nafaqat bankning o'zi, balki butun moliya tizimining ishonchligi va barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli banklarda kiberxavfsizlikni ta'minlash va axborot risklarini samarali boshqarish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida kiberjinoyatchilikning murakkablashib borishi, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirilayotgan hujumlar sonining ortishi banklar tomonidan axborot xavfsizligi tizimlarini takomillashtirishni talab etmoqda. Banklarda axborot risklarini boshqarish jarayoni risklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish va ularni minimallashtirish choralarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonning samarali tashkil etilishi moliyaviy yo'qotishlarning oldini olish, mijozlar ishonchini mustahkamlash hamda bank faoliyatining uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi banklarda kiberxavfsizlikni ta'minlash va axborot risklarini boshqarishning nazariy hamda amaliy jihatlarini o'rganish, mavjud muammolarni tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot davomida bank sektorida uchraydigan asosiy kiberxavflar, axborot risklarini boshqarish mexanizmlari va xalqaro tajribalar tahlil qilinadi hamda banklar faoliyatida axborot xavfsizligini kuchaytirishning ustuvor yo'nalishlari yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Banklarda kiberxavfsizlikni ta'minlash va axborot risklarini boshqarish masalalari so'nggi yillarda iqtisodchi olimlar, axborot texnologiyalari mutaxassislari hamda xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan keng tadqiq etilmoqda. Bank xizmatlarining raqamlashtirilishi va moliyaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida kiberxavflarning ortib borishi mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlarning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Xorijiy olimlar R. Anderson, W. Stallings va B. Schneier o'z tadqiqotlarida axborot xavfsizligini tashkil etishning nazariy asoslarini ishlab chiqqanlar. Ularning ilmiy ishlarida axborotning maxfiyligi, yaxlitligi va foydalanish imkoniyatini ta'minlash kiberxavfsizlikning asosiy tamoyillari sifatida e'tirof etiladi. Mazkur olimlar kiberhujumlarning oldini olishda texnik himoya vositalari bilan bir qatorda, tashkiliy boshqaruv mexanizmlarining ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar.

Xalqaro standartlarni ishlab chiquvchi tashkilotlar, jumladan, International Organization for Standardization (ISO) tomonidan ishlab chiqilgan ISO/IEC 27001 standarti axborot xavfsizligini boshqarish tizimini tashkil etishning muhim vositasi sifatida qaraladi. Ushbu standartda axborot risklarini aniqlash, baholash va boshqarishning tizimli yondashuvlari tavsiya etilgan.

Bank sektorida axborot risklarini boshqarish masalalari Basel Committee on Banking Supervision tomonidan ham keng o'rganilgan. Qo'mita tavsiyalarida operatsion risklar tarkibida axborot texnologiyalari va kiberxavfsizlik bilan bog'liq risklarni samarali boshqarish banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim omili sifatida ko'rsatilgan.

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham bank tizimini raqamlashtirish, axborot xavfsizligini ta'minlash va risklarni boshqarish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ularning ilmiy ishlarida tijorat banklarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, elektron bank xizmatlari xavfsizligini oshirish va mijozlar ma'lumotlarini himoya qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari yoritilgan.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, banklarda kiberxavfsizlikni ta'minlash faqat texnik himoya choralarini qo'llash bilan cheklanib qolmay, balki axborot risklarini kompleks boshqarish tizimini yaratishni ham talab etadi. Bunda risklarni muntazam monitoring qilish, xodimlarning axborot xavfsizligi bo'yicha malakasini oshirish, zamonaviy himoya texnologiyalarini joriy etish hamda xalqaro standartlarga mos boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, raqamli bank xizmatlari ko'lamining kengayib borishi sharoitida kiberxavfsizlikni ta'minlash va axborot risklarini boshqarish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot banklarda kiberxavfsizlikni ta'minlash va axborot risklarini boshqarish tizimining nazariy hamda amaliy jihatlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotning metodologik asosini kiberxavfsizlik, axborot xavfsizligi va bank risklarini boshqarish sohasida shakllangan zamonaviy ilmiy yondashuvlar, xalqaro standartlar hamda ilg'or xorijiy tajribalar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv usulidan foydalanilib, banklarda



axborot xavfsizligini ta'minlashning barcha tarkibiy elementlari o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Mazkur yondashuv bank faoliyatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi kiberxavflarni kompleks ravishda baholash imkonini berdi. Shuningdek, axborot risklarini boshqarishning tashkiliy, texnik va iqtisodiy jihatlari yagona tizim sifatida ko'rib chiqildi.

Tadqiqotda ilmiy abstraksiya va mantiqiy umumlashtirish usullari yordamida kiberxavfsizlik va axborot risklari bilan bog'liq nazariy qarashlar o'rganildi hamda mavjud ilmiy manbalar tahlil qilindi. Xususan, axborot xavfsizligini boshqarish bo'yicha ISO/IEC 27001, ISO 31000 risklarni boshqarish standarti, NIST Cybersecurity Framework hamda Bazel qo'mitasining operatsion risklarni boshqarishga oid tavsiyalari metodologik asos sifatida qo'llanildi. Bank sektorida uchraydigan axborot risklarini baholash maqsadida qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi. Ushbu usul yordamida rivojlangan davlatlar banklarida qo'llanilayotgan kiberxavfsizlik mexanizmlari va ularning samaradorligi o'rganilib, milliy bank tizimidagi amaliyot bilan taqqoslandi. Natijada banklarda axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha mavjud muammolar va ularni bartaraf etish imkoniyatlari aniqlandi.

Tadqiqot davomida statistik tahlil usuli ham qo'llanildi. Bunda xalqaro moliya institutlari, markaziy banklar va kiberxavfsizlik tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlar asosida bank sektorida sodir bo'layotgan kiberhujumlar dinamikasi, axborot xavfsizligi bilan bog'liq yo'qotishlar va risklarning rivojlanish tendensiyalari o'rganildi. Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish banklar faoliyatida kiberxavfsizlikka investitsiyalar kiritish zaruratini ilmiy asoslash imkonini berdi. Bundan tashqari, risklarni identifikatsiyalash, baholash va monitoring qilish usullaridan foydalanilib, banklarda uchraydigan asosiy axborot risklari, jumladan, fishing hujumlari, zararli dasturlar (malware), DDoS hujumlari, ma'lumotlar sizib chiqishi, insayderlik tahdidlari va ijtimoiy muhandislik bilan bog'liq xavflar tahlil qilindi. Har bir riskning yuzaga kelish ehtimoli va bank faoliyatiga ta'sir darajasi baholanib, ularni minimallashtirish bo'yicha tegishli choralar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida tahlil, sintez, induksiya va deduksiya usullaridan kompleks foydalanildi. Olingan natijalar asosida banklarda kiberxavfsizlikni kuchaytirish, axborot risklarini samarali boshqarish hamda zamonaviy raqamli tahdidlarga qarshi barqaror himoya tizimini shakllantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bank sektorida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lamining kengayishi axborot almashinuvi tezligini oshirib, moliyaviy xizmatlarning sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Biroq bank operatsiyalarining elektron shaklga o'tishi kiberxavfsizlik bilan bog'liq tahdidlar sonining ham ortishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, internet-banking, mobil ilovalar, bulutli texnologiyalar va masofaviy to'lov tizimlaridan foydalanish jarayonida axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, banklarda uchraydigan axborot risklarining asosiy qismini fishing hujumlari, zararli dasturlar (malware), DDoS hujumlari, ma'lumotlarning sizib chiqishi hamda ichki xodimlar bilan bog'liq xavflar tashkil etadi. Mazkur tahdidlar banklarning moliyaviy yo'qotishlariga, operatsion faoliyatining izdan chiqishiga hamda mijozlar ishonchining pasayishiga olib kelishi mumkin.

1-jadval
Banklarda uchraydigan asosiy axborot risklari va ularning ta'siri¹

Risk turi	Yuzaga kelish ehtimoli	Ta'sir darajasi
Fishing hujumlari	Yuqori	Yuqori
Malware hujumlari	Yuqori	Yuqori
DDoS hujumlari	O'rta	Yuqori
Ma'lumotlar sizib chiqishi	O'rta	Juda yuqori
Insayder tahdidlari	Past-o'rta	Yuqori

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, fishing va zararli dasturlar bilan bog'liq hujumlar bank sektorida eng ko'p uchraydigan kiberxavflar hisoblanadi. Ayniqsa, ijtimoiy muhandislik usullaridan foydalanilgan hujumlar natijasida mijozlarning shaxsiy ma'lumotlari va bank kartalari rekvizitlarining noqonuniy o'zlashtirilishi mumkin.

Banklarda axborot risklarini boshqarish tizimi risklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish va minimallashtirish bosqichlaridan iborat. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, risklarni boshqarish tizimi samarali yo'lga qo'yilgan banklarda kiberhodosalar natijasida yuzaga keladigan zarar miqdori sezilarli darajada kam bo'ladi. Shu sababli banklar tomonidan axborot xavfsizligini boshqarishning xalqaro standartlariga asoslangan tizimlarni joriy etish muhim hisoblanadi.

1 Manba: muallif ishlanmasi.



Tahlil natijalariga ko'ra, zamonaviy himoya vositalaridan foydalanayotgan banklarda kiberhujumlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilish ehtimoli ancha past. Jumladan, ko'p bosqichli autentifikatsiya, ma'lumotlarni shifrlash, xavfsizlik devorlari (firewall), xavfsizlik operatsion markazlari (SOC) va sun'iy intellekt asosidagi monitoring tizimlari kiberxavflarning oldini olishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, tadqiqot davomida inson omili banklarda axborot xavfsizligiga ta'sir qiluvchi eng muhim omillardan biri ekanligi aniqlandi. Ko'plab kiberhodisalar xodimlarning axborot xavfsizligi qoidalariga to'liq rioya qilmasligi yoki yetarli bilimga ega emasligi sababli yuzaga keladi. Shu bois bank xodimlarini muntazam ravishda kiberxavfsizlik bo'yicha o'qitish va malakasini oshirish zarur.

O'tkazilgan tahlillar asosida banklarda kiberxavfsizlikni ta'minlashning samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq ekanligi aniqlandi:

- zamonaviy texnologik himoya vositalarining mavjudligi;
- axborot risklarini boshqarish tizimining mukammalligi;
- xodimlarning kiberxavfsizlik bo'yicha malakasi;
- ichki nazorat va audit tizimining samaradorligi;
- xalqaro standartlar va me'yoriy hujjatlarga rioya etilishi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, banklarda kiberxavfsizlikni ta'minlash va axborot risklarini boshqarish bo'yicha kompleks yondashuvni qo'llash moliyaviy yo'qotishlarni kamaytirish, bank operatsiyalarining uzluksizligini ta'minlash hamda mijozlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot sharoitida banklar tomonidan kiberxavfsizlikka yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshirish va innovatsion himoya texnologiyalarini keng joriy etish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bank sektorining jadal raqamlashtirilishi moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish va mijozlarga qulaylik yaratish bilan bir qatorda, kiberxavflarning ortishiga ham sabab bo'lmoqda. Bank operatsiyalarining elektron platformalar orqali amalga oshirilishi, masofaviy bank xizmatlari va raqamli to'lov tizimlarining keng qo'llanilishi axborot xavfsizligini ta'minlash masalasini banklar faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirmoqda.

Tahlillar natijasida banklarda uchraydigan asosiy axborot risklari fishing hujumlari, zararli dasturlar, DDoS hujumlari, ma'lumotlarning sizib chiqishi hamda insayder tahdidlari bilan bog'liq ekanligi aniqlandi. Ushbu tahdidlar banklarning moliyaviy barqarorligiga, operatsion faoliyatining uzluksizligiga va mijozlar ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tadqiqot davomida axborot risklarini samarali boshqarish uchun risklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish va nazorat qilish jarayonlarini o'z ichiga olgan kompleks yondashuv zarurligi asoslandi. Shuningdek, xalqaro standartlar, xususan, ISO/IEC 27001 talablarini amaliyotga joriy etish, ko'p bosqichli autentifikatsiya tizimlaridan foydalanish, ma'lumotlarni shifrlash texnologiyalarini keng qo'llash va kiberxavfsizlik auditlarini muntazam o'tkazish banklarda axborot xavfsizligini ta'minlashning muhim omillari ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga asosanib, quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- banklarda axborot xavfsizligini boshqarish tizimlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish;
- kiberxavflarni real vaqt rejimida aniqlash imkonini beruvchi zamonaviy monitoring tizimlarini joriy etish;
- sun'iy intellekt va mashinali o'qitish texnologiyalaridan foydalangan holda tahdidlarni prognozlash va oldini olish mexanizmlarini rivojlantirish;
- bank xodimlari va mijozlarining kiberxavfsizlik bo'yicha bilim va ko'nikmalarini muntazam oshirib borish;
- axborot risklarini baholash va ichki audit tizimlarining samaradorligini kuchaytirish.

Umuman olganda, banklarda kiberxavfsizlikni ta'minlash va axborot risklarini boshqarish tizimini takomillashtirish moliyaviy yo'qotishlarni kamaytirish, bank operatsiyalarining ishonchligini oshirish hamda mijozlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida banklarning barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan axborot xavfsizligini ta'minlash darajasi va kiberxavflarga qarshi samarali himoya mexanizmlarining mavjudligiga bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda qabul qilingan. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonuni. 2022-yil 15-aprel, O'RQ-764-son. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-5960604>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-noyabrdagi PQ-381-son Qarori "Raqamli mahsulotlar



- (xizmatlar) iste'molchilari huquqlarini himoya qilish va raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishni kuchaytirish choralarini to'g'risida". // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-6681111>
4. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 2-iyul, O'RB-547-son. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-4396419>
 5. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 5-noyabr, O'RB-580-son. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-4581969>
 6. O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 1-noyabr, O'RB-578-son. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-4575786>
 7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2024-yil 24-apreldagi 13/1-son qarori "To'lov tizimlari operatorlari va to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilarning to'lov tizimlarida axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlash hamda raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini ko'rish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida". Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 21-mayda 3513-raqam bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-6933268>
 8. O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati raisining 2023-yil 4-sentabrdagi 91-son buyrug'i "O'zbekiston Respublikasi kiberxavfsizlik va muhim axborot infratuzilmasi obyektlarining kiberxavfsizligini ta'minlash darajasini baholash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida". Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 22-sentabrda 3458-raqam bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-6615573>
 9. ISO/IEC 27001:2022. Information Security, Cybersecurity and Privacy Protection — Information Security Management Systems — Requirements. Geneva: International Organization for Standardization, 2022. URL: <https://www.iso.org/standard/27001>
 10. ISO 31000:2018. Risk Management — Guidelines. Geneva: International Organization for Standardization, 2018. URL: <https://www.iso.org/standard/65694.html>
 11. National Institute of Standards and Technology. The NIST Cybersecurity Framework (CSF) 2.0. NIST Cybersecurity White Paper 29. Gaithersburg, MD: NIST, 2024. DOI: 10.6028/NIST.CSWP.29. URL: <https://nvlpubs.nist.gov/nistpubs/CSWP/NIST.CSWP.29.pdf>
 12. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for Operational Resilience. Basel: Bank for International Settlements, 2021. URL: <https://www.bis.org/bcbs/publ/d516.pdf>
 13. Basel Committee on Banking Supervision. Cyber-resilience: Range of Practices. Basel: Bank for International Settlements, 2018. URL: <https://www.bis.org/bcbs/publ/d454.pdf>
 14. Anderson R. Security Engineering: A Guide to Building Dependable Distributed Systems. 3rd ed. Indianapolis: Wiley, 2020. 1232 p.
 15. Schneier B. Click Here to Kill Everybody: Security and Survival in a Hyper-connected World. New York: W.W. Norton & Company, 2018.
 16. Stallings W. Network Security Essentials: Applications and Standards. 6th ed. Harlow: Pearson Education Limited, 2017.
 17. Whitman M.E., Mattord H.J. Principles of Information Security. 7th ed. Boston: Cengage Learning, 2022.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>